

E'TIBOR – AYOLGA ZARUR UNSUR

*Qurbonova Dilnoza Toxirova**O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti**“San'atshunoslik va madaniyatshunoslik” kafedrasida tadqiqotchisi (PhD)*

Annotatsiya. Yangi O'zbekistonda xotin-qizlarning qonuniy huquq va manfaatlarini ta'minlash, ularni iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy faolligini oshirish jamiyat taraqqiyot strategiyasining muhim yo'nalishlardan biri sifatida belgilanib, yurtimizda oila va ayollar masalasi davlat siyosati darajasiga yetdi. Chunki, ayol jamiyatning negizi hisoblangan oilada farzandlar tarbiyasi bilan shug'ullanish bilan birga jamiyatda ham o'z o'rniga ega bo'lib, Vatanimiz ravnaqi va osoyishtaligi, xalqimiz farovonligi yo'lida xizmat qiladigan barkamol insonlarni voyaga yetishida muhim omil hisoblanadi.

Калит сўзлар: хотин-қизлар, гендер, бандлик, оила, ижтимоий, маданий.

Аннотация. В новом Узбекистане обеспечение законных прав и интересов женщин, повышение их экономической, социальной и политической активности определено как одно из важных направлений стратегии развития общества, а проблема семьи и женщины в нашей стране вышла на уровень государственной политики. Поскольку женщина считается основой общества, она имеет место в обществе, а также заботится о детях в семье и является важным фактором в воспитании всесторонних людей, которые будут служить развитию и миру нашей страны. и благополучие нашего народа.

Ключевые слова: женщины, гендер, занятость, семья, социальная, культурная.

Abstract. In the new Uzbekistan, ensuring the legitimate rights and interests of women, increasing their economic, social and political activity is defined as one of the important directions of the society development strategy, and the problem of the family and women in our country has reached the level of state policy. Because a woman is considered the backbone of society, she has a role in society, as well as taking care of children in the family, and is an important factor in raising all-round people who will serve the development and peace of our country and the welfare of our people.

Key words: women, gender, employment, family, social, cultural.

“Yer yuzidagi har qaysi jamiyatning madaniy darajasi uning ayollarga bo'lgan munosabati bilan belgilanadi”.

Sh.Mirziyoev

Har qanday davlat va jamiyat taraqqiyoti qator omillar asosida yuz beradi. Bu jarayonda ayollar ularning ijtimoiy-siyosiy munosabatlardagi ishtiroki, huquq va

erkinliklari amalda ta'minlanganligi masalasi davlatlar rivoji hamda demokratiyaning muhim indeksi sanaladi. Zotan, ayol va uning jamiyat hayotidagi o'rnini hamisha muhim mezon bo'lib kelgan.

Insoniyat tarixini qadim ibtido zamonlardan buyon ayollarsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Ular erkaklar bilan bir qatorda ham oilani, ham jamoa ishlarini bajarib kelgan. Keyingi tariximizga nazar tashlasak ayol oila, farzand tarbiyasi bilan shug'ullanib qolmay, o'z turmush o'rtog'ining eng yaqin maslahatgo'yi bo'lganligini, o'z zamonining taniqli shoirasi, davlat rahbari bo'lganligini, turmush o'rtog'i bilan hayot, dunyo tashvishlarini birga tortganini barcha yaxshi biladi. Sharqda ayniqsa ayollarga hurmat cheksiz bo'lib, ular ijtimoiy hayotning barcha jabhalarida faol bo'lganlar. Bular sirasiga To'maris, Saroymulkxonim, Gulbadanbegim, Zebunisobegim, Nodira, Uvaysiy, Anbar Otin va boshqa shu kabi ayollar kiradilar.

Dunyoda jamiyatning nufuzi, ongu tafakkuri, madaniy darajasini ko'rsatadigan mezonlar ko'p. Lekin har qaysi millat va xalqning ma'naviy kamolotini belgilovchi, ta'lim-tarbiyasini takomillashtiruvchi xilqat – ayoldir. Xotin-qizlarga bo'lgan munosabat, hurmat-ehtiromni davlatning ularga bo'ladigan munosabatida belgilash mumkin. Shu nuqtai nazardan qaralsa, ayollarni ulug'lab, ardoqlab, boshiga ko'tarib yashaydigan xalq o'zining yuksak madaniyati va oliyjanob qadriyatlarini amalda namoyon qiladigan millat sifatida hurmat qozonadi. Ayolsiz hayotni, taraqqiyotni tasavvur qilib bo'lmaydi. Ular jamiyatning yetakchi kuchlaridir. Zero, ayol kamolotisiz jamiyat kelajagi bo'lmasligiga to'la ishonch hosil qilamiz.

Davlatimiz rahbari ta'kidlaganidek, “Ayollarni izzat–ikrom qilish, ulug'lash, ardoqlash, og'irini yengil qilish ota-bobolarimizdan qolgan muqaddas udumdur. Ma'lumki muqaddas Qur'oni Karimning eng katta suralaridan biri – “Niso”, ya'ni “Ayollar” deb ataladi. Alloh Taolo ushbu surada insonlarni ayollarga adolatli munosabatda bo'lishga da'vat etadi va bu ilohiy so'zlar zamirida albatta teran hikmat mujassam” [1].

Oila va jamiyat ustuni, hayotimizning fayzi va ko'rki bo'lgan xotin-qizlarni e'zozlash, ularga hurmat ko'rsatish xalqimiz uchun azaldan buyuk qadriyat bo'lib kelgan.

Biz oilani ilk tarbiya o'chog'i sifatida e'tirof etamiz. Mana shu oilaning ustuni tarbiyalanuvchilarini boshqaruvchi zot – Ona! Albatta ona yaratganning buyuk mo'jizasi, chunki ona avlodlar davomiyligini, oila tinchligini ta'minlaydi, barkamol avlodni tarbiyalaydi, kelajakni yaratadi.

Darhaqiqat, Allohning mo'jizasi bilan Payg'ambarimiz Muhammad Alayhissalomni dunyoga keltirgan zot – ayol, Amir Temurni beshigini tebratgan zot ham ayol, Navoiyni oq sut berib katta qilgan ham ayol, tunlarni bedor o'tkazib, Ulug'bekni voyaga yetkazgan ham ayol. Shunday ekan, ayol kishiga eng avvalo millat tarbiyachisi sifatida qaramoq lozim. Shu o'rinda aytish joizki, xotin-qizlarning ilm-ma'rifatli, madaniyatli bo'lishi, ya'ni ayol kishining ijtimoiy hayotdagi, jamiyatdagi o'rnini ta'lim-tarbiyani to'g'ri izchil tashkil etishda faol

ishtirok etadi. Zero, ayol fuqarolik jamiyati kelajagi bo'lgan yosh avlodni tarbiyalash hamda, farzandlar tafakkurini o'zgartirish bilan bog'liq o'ta dalzarb va muhim masalalarni hal qilish qudratiga egadir.

Alloma va mutaffakkirlar ham baxtli, tinch oila qurish, oila baxtini saqlab qolish, turmush qiyinchiliklarini yenga bilish hamda farzandlar tarbiyasi ayollarga xos xususiyatlar va ularga amal qilish kabi o'g'itlarni meros qilib qoldirganlar. Ular qoldirgan ta'limotlarining bugungi kunda ham ahamiyati beqiyosdir.

Buyuk mutaffakkir Alisher Navoiyning “ Mahbub ul qulub ” asarida ayollarning oiladagi o'rni haqida quyidagi fikrlar berilgan. “Agar kelin yaxshi bo'lsa, barcha holatlarda senga hamdam bo'ladi. Uning osoyishtaligi ham, xonadon orastaligi ham undandir. Oqila bo'lsa, ro'zg'orda intizom bo'ladi, uy anjomlari tartibda va saranjom bo'ladi” [2].

Tarixga nazar solsak, XIX asr oxiri va XX asr boshlarining yetakchi ma'rifatparvarlari M. Behbudiy, A. Fitrat, A. Avloniy xotin-qizlarning jamiyatdagi o'rni borasida keng fikrlar bildirganlar. Masalan, Fitratning Oila boshqarish tartiblari asarida shunday fikrlar bor: “Biz farzandlarimizni yaxshi xulq egalari etib tarbiyalashimiz lozim, ya'ni shunday qilishimiz lozimki farzandlarimiz imonli, fidokor bo'lib ulg'ayib, o'z bolalarini islom taraqqiyotiga muvofiq tarbiyalab, din va dindoshlarini halokat va xarobalik jarligidan qutqarsinlar. Bu matlabga erishish uchun xotinlarimiz va qizlarimiz – millat onalari tarbiya va ilm olishlari lozim, axloq va bilimlarini kamolga yetkazishlari zarur” [3: 97-98 b].

Vatan oila deb atalmish qo'rg'ondan boshlanadi. Demak, oilaning poydevori mustahkam bo'lsa, jamiyat ham mustahkam poydevoga ega bo'ladi.

“Oilani asosini to'g'ri qurmasdan va yosh avlodni to'laqonli to'g'ri yo'lda tarbiyalamasdan turib, jamiyatni isloh qilish, uning rivojini taraqqiyot sari yo'naltirish mumkini emas”. “Oxir oqibatda millat taqdiri uning oilasining holatiga bog'liq” [4: 9 b]. Ushbu g'oyalar Fitratning Oila asarida o'z ifodasini topgan.

Hozirgi kunda jamiyatimizda ayollarning o'rni qanchalik yuqori bo'lsa, oila mustahkamligidagi o'rni ham beqiyosdir. Bugungi kunda O'zbekiston axolisining salkam 17 millionini ayollar tashkil etadi. Bizning mamlakatimizda xotin-qizlar ijtimoiy faolligi va gender masalalariga katta e'tibor berilib kelinmoqda.

Yaqin yillar mobaynida O'zbekistonda ayollarga bo'lgan munosabat, ularning huquq va erkinliklarini himoya qilish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 75-sessiyasidagi nutqida ta'kidladi: “Biz uchun gender tenglik siyosati ustuvor masalaga aylandi. Xotin-qizlarning davlat boshqaruvidagi o'rni tobora kuchaymoqda. Yangi Parlamentimizda ayol deputatlar soni ikki barobarga ko'paydi” [5].

Darhaqiqat, ayollarning o'rni oila qo'rg'onidan tortib, deputat kursisigacha ko'rishimiz mumkin.

Jahon tarixiga e'tibor bersak, juda ko'p mamlakatlarda ayollarning jamiyatdagi o'rni yo'qotishga, ularda uy va oila bilan bog'liq asosiy vazifalardan tashqariga chiqmaslikka harakat qilishgan. Bu paytlarda g'arb mamlakatlarida

hattoki ayollar aholining eng quyi pog'onasi kabi saylov huquqidan chetlatilgan va davlat boshqaruvida ular ishtirok etishmas edi.

Tarixan davlat boshqaruv organlaridagi rahbarlik lavozimlarini erkaklar boshqarib kelishi amaliyotda ko'proq. Ayolni esa uy bekasi, o'qituvchi, shifokor, tarbiyachi kabi lavozimlarda ko'rar edik. Mamlakatimizda har jabhada ayollarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirishga qaratilgan amaliy ishlar qilinmoqda. Bugun yangi O'zbekistonning poydevori qurilmoqda. Uchinchi renessans davriga kirib borishda xotin-qizlarga e'tibor, ularga bo'layotgan munosabat o'zgarayotgani, avvalo ularni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, qobiliyat iqtidorlarini namoyon etishlari uchun keng imkoniyatlar yaratilib berilishida namoyon bo'lmoqda. Jumladan:

- O'zbekiston Respublikasida gender tenglikni ta'minlash masalalari bo'yicha komissiya tuzildi;

- "2020-2030 yillarda O'zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasi" qabul qilindi;

- Oliy Majlis Senatining Xotin-qizlar va gender tenglik masalalari qo'mitasi va Qonunchilik palatasida Oila va ayollar masalalari bo'yicha komissiya tashkil etildi;

- Vazirlik va idoralarda gender tenglik masalalari bo'yicha maslahat kengashi faoliyati yo'lga qo'yildi;

- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 01.03.2022-yildagi PF-81-son Farmoni bilan, oila va xotin-qizlar qo'mitasi tashkil etildi. .

Ayni paytda aholi bilan muloqotlar o'tkazilishi tufayli minglab xotin-qizlar bo'sh ish o'rinlariga ega bo'lishmoqda, qaysidir yordamga muxtoj, bemor onaning davolanishi uchun moddiy ko'mak berilayotgan bo'lsa, xotin-qizlarga oilaviy sharoitlarini yaxshilashlari, ularning bandligi ta'minlanishi uchun imtiyozli kredit mablag'lari ajratilmoqda. Ayniqsa, xotin-qizlarning o'z tadbirkorliklarini yo'lga qo'yishlari uchun yo'naltirilayotgan imtiyozli kreditlar tufayli ko'plab oilalar farovonligiga sabab bo'lmoqdi. Tibbiyot tizimida ham amalga oshirilayotgan islohotlarda ham onalar va bolalarning, bo'lg'usi onalar qizlarning salomatligini asrash masalasi muhim o'rin tutmoqda. Oliy Majlis Senatining Xotin-qizlar va gender tenglikmasalalari qo'mitasi tomonidan xotin-qizlarga ko'rsatilayotgan tibbiy xizmatlar sifati, chuqurlashtirilgan tibbiy ko'rikdan o'tkazish holati, ular o'rtasida ko'p uchrayotgan kasalliklar oldini olish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar izchil davom ettirmoqda va doimiy nazoratda. Bugungi kunda respublikaning barcha xududlarida jami 16.5 mln. Nafar ayolga 226 ta statsionar tug'ruq muassasalari tomonidan tibbiy xizmat ko'rsatib kelinmoqda. 18 yoshgacha bo'lgan 10.8 nafar bolaga 235 ta bolalar davolash profilaktika muassasalari xizmat ko'rsatmoqda [6].

So'nggi yillarda ayollarimizni katta va kichik biznes egalari, oliy vakillik organlari deputatlari tuman va shahar hokimlari lavozimlarida ko'rishimiz mumkin. Asta-sekin xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligi oshib bormoqda.

Konstitusiyamizda ayollar qadr-qimmatini, huquqlar himoyasi bo'yicha insoniy meyorlar belgilangan. Alohida qayd etish kerak, bugungi kunda xotin-qizlarning

huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlarini himoya qilish yanada dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, ayollarning ijtimoiy-iqtisodiy hamda siyosiy-huquqiy faolligini oshirish davr talabiga aylangan.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi 46-moddasida “Xotin-qizlar hamda erkaklar teng huquqlidirlar” deya mustahkamlab qo‘yilgan[7].

“Jamiyatda xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlarini ta’minlashning asosiy tamoyillari mavjud bo‘lib, bular qonuniylik, demokratizm, xotin-qizlar va erkaklar teng huquqliligi, jins bo‘yicha kamsitishga yo‘l qo‘ymasligi, ochiqlik va shaffoflikdir”. “Mamlakatimizda ayol qadrini yuksaltirish borasidagi keng qamrovli islohotlar, albatta bu borada huquqiy asoslar yaratilgani va takomillashtirib borilgan bilan hal qiluvchi ahamiyatga egadir”, – deb yozadi Oliy Majlis Senatining Xotin-qizlar va gender tenglik masalalari qo‘mitasi raisi M. Qodirxonova[8].

Jamiyatimizda amalga oshirilayotgan davlat siyosati xotin-qizlarimizning chinakam baxtli yashashi, ularning huquq va erkinliklarini ta’minlash, intellektual va ma’naviy yuksalishi, kasbiy hamda oilaviy majburiyatlarini hamohang tarzda bajarishi uchun keng imkoniyatlar yaratmoqda.

Buni yorqin misoli sifatida 2019 yil 3 sentabrda ikkita muhim hujjat – “Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida” hamda “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasining qonunlari qabul qilinganligi asoslidir [9]. Mazkur qonun gender, xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta’minlash sohasidagi munosabatlarni tartibga soladi.

Xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo‘ravonlikning oldini olish – bugungi kunning eng muhim va dolzarb masalalaridan biridir. Chunki zo‘ravonlik xotin-qizlarning nafaqat ruhiy, balki ijtimoiy, jismoniy salomatligiga zarar yetkazish barobarida, bir qator ijtimoiy muammolarni ham keltirib chiqaradi. Xotin-qizlar siyosiy hayotda va ijtimoiy turmush faoliyatida o‘z huquqlarining kamsitilishiga duch kelishadi. Bu borada, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Senati raisi Tanzila Norboyevaning “Prezident ayollarni hokimlikka tasdiqlayman – deb turganda, biz ularni zo‘ravonlikdan asray olmayapmiz” [10] - degan so‘zlari bejiz emasligiga aminmiz. Afsuski, “Ayol kishini gul bilan ham urib bo‘lmaydi”, degan naqlni unutib qo‘yganlar ham topiladi. Dunyoda eng tengsiz ne‘mat hisoblangan hayot insonga Allox taolo tomonidan bir martagina ato etiladi. Uni farog‘atda yashagan el-yurtga, odamlarga yaxshilik istaganlarning umri mazmunli kechadi, ularga hamma havas qiladi, bunday insonlardan yaxshi nom, ezgu ishlar qoladi. Zero, tinchlikni ulug‘ ne‘mat deb e‘lon qilgan dinimizda – bu yo‘lda nafaqat amal bilan, balki so‘z bilan ham zarar keltirishdan qaytarilgan.

Mamlakatimizda xotin-qizlarning ijtimoiy siyosiy va sotsial faolligini oshirish, ularning turli soha va tarmoqlarda o‘z qobiliyatlarini ro‘yobga chiqarish uchun shart-sharoit yaratish, huquq va qonuniy manfaatlariga so‘zsiz rioya qilinishini ta’minlash, onalik va bolalikni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash,

shuningdek, xotin-qizlarga nisbatan zo‘ravonlikni oldini olish hamda oila institutini mustahkamlash borasida keng ko‘lamli ishlar olib borilmoqda.

Prezidentimiz SH. Mirziyoyevning xotin-qizlarga qaratayotgan yuksak e‘tibori – biz ayollarni huquqiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash, jamiyat va oilada mavqeini yanada oshirish, ijtimoiy-siyosiy faolligini ta‘minlash – har bir ayol yurtimizda o‘zining munosib o‘rnini topishi uchun barcha imkoniyatlarni yaratib berdi. Bu borada, 2020 yil 20 fevral kuni “Jamiyatda ijtimoiy-ma‘naviy muhitni sog‘lomlashtirish, mahalla institutini yanada qo‘llab-quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni qabul qilindi. Bunda, xotin-qizlarning jamiyatdagi ijtimoiy faolligini oshirishni belgilab berilgan qator vazifalar ko‘ndalang qo‘yildi [11].

Mamlakatimiz aholisining qariyb 50 foizini xotin-qizlar tashkil etadi. Ayollarning barcha sohadagi samarali mehnati, ayniqsa, oila, farzandlar tarbiyasidagi betimsol xizmatini hech narsa bilan o‘lchab, qiyoslab bo‘lmaydi. Ayolning ilmi bo‘lishi uning oilasi, farzandlari, qarindosh urug‘lari va qolaversa, butun jamiyatning ilmi, madaniyatli bo‘lishi uchun mustahkam poydevor bo‘lib xizmat qiladi. Shu o‘rinda Xitoy faylasufi Konfusiy aytgandek, “Erkak ilmi bo‘lsa – nari borsa bir kishi ilmi bo‘ladi, ayol ilmi bo‘lsa – millat ilmi bo‘ladi” [12: 48 b]. Demak, qadimdan o‘qilgan ayollarning ilmi, oqila, fozila bo‘lishidan butun jamiyat manfaatdor bo‘lib kelgan. Yuksak ma‘naviyatli va ma‘rifatli, namunali odobi va tarbiyasi bilan e‘tirof etilgan onalarimizning izdoshlari bugun davlat va jamiyat qurilishida, ishlab chiqarishda, ilm-fan, madaniyat, tibbiyot, ta‘lim va xatto xarbiy sohada xizmatlari beqiyos. Zotan, ayol yuksalsa, butun bashariyat yuksaladi, degan ibora bor.

Bugun Yangi O‘zbekistonda xotin-qizlarimiz azizu mukarramlarning baland shohsupalariga olib chiqilayotgani ham aynan ushbu hikmatning bardavomligidan dalolatdir. Davlatimiz rahbarining ta‘biri bilan aytganda: “Xalqimiz azal-azaldan Ona siymosini, Ayol zotini Yaratganning ulug‘ ne‘mati, tengsiz mo‘jizasi deb biladi, uni hamisha ardoqlab-asrab yashaydi”[13]. Darhaqiqat, ayol qaysi davr, qanday mavqe, qay bir sharoitda bo‘lmasin, baribir muqaddas zot bo‘lib qolaveradi.

Prezidentimiz bir qator Farmon va qarorlari davlat tashkilotlariga ayollar huquqlari bilan bog‘liq vazifalarni belgilab, ularni mas‘uliyatini yanada oshirdi. Xususan, “Xotin-qizlarning mehnat huquqlari kafolatlarini yanada kuchaytirish va tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlashga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi qaror ana shunday muhim hujjatlardan biri hisoblanadi [14].

Xotin-qizlar mavqeini oshirish, ularning intellektual salohiyatini yuksaltirish, ulardagi salohiyatning namoyon etilishi uchun jamiyatda yaratilgan imkoniyatlar doirasini yanada kengaytirish o‘z-o‘zidan oilalarning mustahkamlanishi, jamiyat taraqqiyoti rivoji, qolaversa, xalqaro miqyosda ham mamlakatimiz nufuzining yanada yuksalishi, farzandlar tarbiyasining yaxshilanishi, xotin-qizlardan aksariyatining nafaqat o‘z oilalari uchun, balki jamiyat taraqqiyoti uchun, jamiyat

rivoji uchun fidoyilarcha mehnat qilishlarining faollashuvi, huquqiy demokratik jamiyat qurish jarayonida ayollar ishtirokining bundan-da ko‘payishiga ko‘maklashishi muqarrar.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 1 martdagi “Oila va xotin-qizlar bilan ishlash, mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-81 sonli Farmoni qabul qilindi [15]. Ushbu Farmon yurtimizda xotin-qizlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, onalik va bolalikni muhofaza qilish, oila mustahkamligini ta‘minlash borasida amalga oshirilayotgan ishlarning yana bir muhim bosqichini boshlab berdi. Zero, inson qadrini ulug‘lash, avvalo ayolga hurmat va ehtirom, mo‘tabar onalarimizni e‘zozlash, munis opa-singillarimizni qadrlash orqali ro‘yobga chiqadi, desak ayni haqiqatni aytgan bo‘lamiz.

Ayol oilada turmushning asosiy tirgagi. Oilaning har bir a‘zosi uchun mehribon va mushfiq ayollar jamiyat farovonligi uchun ham juda muhim shaxs. O‘z oilasida bir gala farzandlar parvarishi, ta‘lim-tarbiyasidan ortib, jamiyatda ham katta va zalvorli vazifalarni zimmasiga olgan, uni sharaf bilan uddalab kelayotgan fidoyi ayollar zamonamizning chinakam qahramonlari desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Oilaning ma‘naviy axloqiy kamol topishi, uning yo‘nalishlari va ustuvorliklarini hamda oilada xotin-qizlarning tutgan o‘rni mutaxassislar va jamoatchilikning diqqat e‘tiborida turgan muammolardan ekanini hisobga olib, quyidagi takliflarni berish mumkin:

- xotin-qizlar bandligini ta‘minlash hamda muammolarini o‘rganish;
- ayollarning huquqiy madaniyati va diniy savodxonligini oshirish;
- mehnatda band bo‘lgan ayollarni qo‘llab-quvvatlashda imtiyozli yondashuvlarni qo‘llash;
- ayollarning tadbirkorligini, kasanachilik va hunarmandchilikni qo‘llab-quvvatlovchi mexanizmni joriy etish zarur;
- xotin-qizlarga nisbatan barcha shakldagi kamsitish va zo‘ravonlikka yo‘l qo‘ymaslik;
- jamiyatda xotin-qizlarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilishni kuchaytirish;
- ayollarning oliy ma‘lumotga ega bo‘lish darajasini oshirish;
- xotin-qizlar ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarini yaxshilash;

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, bugungi kunda har qanday jamiyatning asosiy “ko‘zgusi” – xotin-qizlar ekanligi shubhasizdir. Chunki, jamiyatning ijtimoiy tuzumi qanday bo‘lishidan qat‘iy nazar, o‘sha jamiyat aholisi turmushining farovonlik darajasi, oilalar barqarorligi, kelajak avlod – farzandlar tarbiyasi, iqtidori, jamiyatdagi intellektual salohiyat, ma‘naviyat va madaniyat, ma‘rifat, qo‘yingki, barcha jabhalarda erishilgan yutuqlar shu jamiyat taraqqiyotiga xotin-qizlarning qo‘shadigan hissasi va o‘sha jamiyatning ayollarga munosabati bilan belgilanadi. Xalqimiz orasida “Ayol bir qo‘li bilan beshikni, ikkinchi qo‘li bilan dunyoni tebratadi”, degan naql bejiz vujudga kelmagan. Zero, ayol oilada

farzandlar tarbiyasi bilan shug'ullanishi bilan birga, jamiyatda ham o'z o'rniga ega bo'lmog'i lozim.

Foydalangan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Xalqaro xotin-qizlar bayramiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. // "Xalq so'zi" - 2020. -8 mar.
2. Navoiy Alisher. Mahbub ul-qulub. –Toshkent: Sano-standart, 2018. -192 b.
3. Fitrat A. Oila yoki oila boshqarish tartiblari. -Toshkent: Ma'naviyat, 2020. - 112 b.
4. Fitrat A. Oila. – Toshkent: 2016. -144 b.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 75-sessiyasidagi nutqi. // "Yangi O'zbekiston" -2020. -24 sen.
6. Oriat dono radiosining 2021 yil 30-noyabrdagi "Yangiliklar" dasturidan
7. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi. -Toshkent: O'zbekiston, 2014. -76 b.
8. M. Qodirxonova Ayolga hurmat va ehtirom farovon va fayzli hayotimizga mustahkam poydevordir. // Yangi O'zbekiston -2022. -18 avg.
9. "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi qonuni // Xalq so'zi. -2019. -3 sen.
10. [https:// kun.uz](https://kun.uz)
11. Jamiyatda ijtimoiy ma'naviy muhitni sog'lomlashtirish, mahalla institutini yanada qo'llab-quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni // Xalq so'zi -2020. -20 fev.
12. Konfusiy "Sultonlarga nasihat risolasi" История китайской философии. – Москва, 1989. -48 b.
13. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Xalqaro xotin-qizlar kuniga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. // Yangi O'zbekiston -2022. -8 mar.
14. "Xotin-qizlarning mehnat huquqlari kafolatlarini yanada kuchaytirish va tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlashga oid chora-tadbirlari to'g'risida" 4235-sonli qarori // Xalq so'zi -2019. -mar.
15. "Oila va xotin-qizlar bilan ishlash, mahalla va nuroniylarni qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-81-sonli Farmoni <https://lex.uz/ru/docs/>
16. Yusupova, N. (2021). PECULIARITIES OF LEARNING ACTIVITIES OF STUDENTS WITH INTELLECTUAL DISABILITIES. CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS, 2(11), 138-142.
17. Berdiyeva, G. (2022, September). " FINE ART" IS A CREATIVE PRODUCT FOR CHILDREN IN NEED OF SPECIAL HELP. In International Scientific and Current Research Conferences (pp. 124-127).

18. Mirakhmedova, L. A. (2021). THE ROLE AND ROLE OF LOGORITHMIC EXERCISES IN ELIMINATING SPEECH DEFICIENCIES. CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS, 2(11), 122-125.
19. Rustamovna, U. N., & Madaminovna, B. M. (2022). THE STUDY OF THE CONCEPT AS A UNIT OF COGNITIVE LINGUISTICS. Modern Journal of Social Sciences and Humanities, 4, 66-69.
20. Pulatova, M. (2019). The main finite difference method summation of L. Euler series. In Science and practice: a new level of integration in the modern world (pp. 219-222).
21. Jabbarov, U. (2020). Individual Psychological Characteristics Of Students In Teaching Foreign Language Sciences. Журнал иностранных языков и лингвистики, 1(1), 38-42.
22. Абдуллаева, Р. М. (2022). Интеграция С Клиническими Дисциплинами В Медицинском Вузе При Обучении Русскому Языку Специальности. Central Asian Journal of Medical and Natural Science, 3(6), 94-97.
23. Абдуллаева, Р. М. (2022). Коммуникационные Технологии Языкового Обучения В Медицинском Вузе. Central Asian Journal of Medical and Natural Science, 3(6), 98-102.
24. Abdullaeva, R., Esanow, F. N. U., & Eshbaeva, N. (2022). Translation as a means of teaching clinical terminology.
25. Абдуллаева, Р. М. (2019). Ситуативный контекст в процессе преподавания русского языка студентам медицинских вузов. In Современная Россия в мировом политическом процессе: глобальное и региональное измерение (pp. 357-363).
26. Абдуллаева, Р. М. (2021). СЕТЕВЫЕ ТЕХНОЛОГИИ НА ЗАНЯТИЯХ РУССКОГО ЯЗЫКА В МЕДИЦИНСКОМ ВУЗЕ. Редакционная коллегия.
27. Кулахметова, Ж. Т. (2018). ЗНАЧЕНИЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИНФОРМАЦИОННО-КОММУНИКАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ ПРИ ОБУЧЕНИИ ИНОСТРАННЫМ ЯЗЫКАМ. НАУКА И ИННОВАЦИИ В XXI ВЕКЕ: АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ, ОТКРЫТИЯ, 51.
28. Abdullaeva, R., Mirrahimova, G., Israilova, I., Eshbaev, O., & Aminova, G. (2020). Learning foreign vocabulary using computer programs. International Journal of Psychosocial Rehabilitation, 24(S1), 567-572.
29. Mirzatullaeva, A. R., Jabbarovich, E. U., Shuhratovna, M. G., Erikovna, N. F., & Majlimovna, P. M. (2019). Uso de tecnologias multimedia modernas en clases de idiomas extranjeros. Religación. Revista de Ciencias Sociales y Humanidades, 4(18), 80-85.
30. Абдуллаева, Р. М. (2016). СВОЕОБРАЗИЕ СИСТЕМЫ ОБРАЗОВАНИЯ ВЕЛИКОБРИТАНИИ. Ученый XXI века, 9.
31. Zairova, N. B. (2022). THE USE OF ARTICULATORY STATES OF SOUNDS IN THE ELIMINATION OF PHONETIC-PHONEMIC SPEECH DEFICITS OF STUDENTS IN GENERAL EDUCATION SCHOOLS IN

- LOGOPEDIC TRAINING. The American Journal of Social Science and Education Innovations, 4(11), 23-27.
32. Zairova, N. B. (2022). ORGANIZATION AND CONDUCT OF SPEECH THERAPY CLASSES WITH STUDENTS WITH SPEECH DISORDERS IN SECONDARY SCHOOLS. The American Journal of Interdisciplinary Innovations and Research, 4(11), 75-80.
 33. Abdullayeva, Y. (2022). THE IMPORTANCE OF COMPUTER PROGRAMS IN FORMING THE VOCABULARY OF CHILDREN WITH SPEECH DEFICIENCIES. The American Journal of Interdisciplinary Innovations and Research, 4(11), 87-92.
 34. Sabirova, Z. I. (2022). PREPARATION OF CHILDREN WITH SPEECH DISTURBANCE IN SCHOOL IN THE CONDITIONS OF A PRESCHOOL EDUCATIONAL INSTITUTION. The American Journal of Interdisciplinary Innovations and Research, 4(11), 59-64.
 35. Sabirova, Z. I. (2022). PREPARATION OF CHILDREN WITH SPEECH DISTURBANCE IN SCHOOL IN THE CONDITIONS OF A PRESCHOOL EDUCATIONAL INSTITUTION. The American Journal of Interdisciplinary Innovations and Research, 4(11), 59-64.
 36. Ixamjanova, S. Z. (2021, May). MODELING THE DEVELOPMENTAL ENVIRONMENT IN SCHOOLS FOR CHILDREN WITH SEVERE DISABILITIES. In E-Conference Globe (pp. 259-263).
 37. Sabirova, Z. (2021). Model of preparing children with delayed mental development to school in conditions of preschool educational institutions. ACADEMICIA: AN INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL, 11(2), 700-706.
 38. Shoakhmedova, S. K. (2022). CHARACTERISTICS OF THE SPEECH THERAPIST'S ACTIVITY IN THE GENERAL EDUCATION SCHOOL IN THE CONDITIONS OF INCLUSIVE EDUCATION. The American Journal of Social Science and Education Innovations, 4(11), 17-22.
 39. Shoakhmedova, S. K. (2022). USE OF COMPUTER TECHNOLOGIES IN WORK WITH CHILDREN WITH SPEECH DISORDERS. The American Journal of Interdisciplinary Innovations and Research, 4(11), 81-86.
 40. Gapurova, D. (2022). DIFFERENTIAL DIAGNOSIS OF CHILDREN WITH COMPLEX DEVELOPMENTAL DISORDER. The American Journal of Social Science and Education Innovations, 4(11), 12-16.
 41. Gapurova, D. (2022). CHILDREN WITH COMPLEX DEVELOPMENTAL DISABILITIES (CHILDREN WITH SENSORY AND MENTAL DISABILITIES). The American Journal of Social Science and Education Innovations, 4(11), 06-11.
 42. Gapurova, D. (2021). Children with complexed developmental disorders. ACADEMICIA: AN INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL, 11(2), 683-687.

43. Гапурова, Д. Т. (2020). АЛОҲИДА ЁРДАМГА МУҲТОЖ БОЛАЛАРНИНГ ТАЪЛИМ ОЛИШ ИМКОНИАТЛАРИ. ИННОВАЦИИ В ПЕДАГОГИКЕ И ПСИХОЛОГИИ, (SI-2№ 8).
44. Gapurova, D. T. (2019). Vocabulary Disorders of Children with Motor Alalia. Eastern European Scientific Journal, (1).
45. Alimova, K. K. (2022). DEVELOPMENT OF GRAPHOMOTOR SKILLS IN CHILDREN WITH SPEECH DISORDERS CURRENT ISSUES. International Journal of Pedagogics, 2(12), 05-09.
46. Alieva, S. S. (2022). MECHANISMS OF DEVELOPMENT OF VOICE DISORDERS IN DYSARTHRIA. The American Journal of Social Science and Education Innovations, 4(11).
47. Alieva, S. S. (2022). PECULIARITIES OF SPEECH OF CHILDREN WITH DYSARTHRIA. The American Journal of Social Science and Education Innovations, 4(11), 41-46.
48. Shaabdurakhimova, S. S. (2021). Voice formation mechanism and causes of voice impairment. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(3), 2259-2265.
49. Khusniddinova, B. K. (2022). INTERACTION OF A SPEECH THERAPIST WITH OTHER PARTICIPANTS IN THE CORRECTIONAL PROCESS. The American Journal of Social Science and Education Innovations, 4(11), 01-05.
50. Khusniddinova, B. X. (2021). LOGOPEED'S CODE OF ETHICS. CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS, 2(09), 97-100.
51. Khusniddinova, S. K. (2019). Didactic Games Role in Work on Sound Automation. Eastern European Scientific Journal, (1).
52. Abutova, S. O. (2022). RULES FOR COMMUNICATING WITH PRESCHOOL CHILDREN WHO STUTTER. American Journal Of Social Sciences And Humanity Research, 2(12), 48-55.
53. кизи Муқимджонова, У. В., Исаков, М. Ю., & Худжаева, Н. Т. (2022). VIGNA SINENSIS, PHASELOUS AYREUS, ARACHNIS HYPOGAEA O'SIMLIKLAR DONLARI VA ROYALARINING ORGANIK TARKIBI. Журнал химии товаров и народной медицины, 1(2), 185-202.
54. Исаков, В. Ю., Исаков, М. Ю., & Муқимжоннова, У. В. К. (2022). МИКРОБИОГЕННЫЕ ЭЛЕМЕНТЫ В СИСТЕМЕ «ПОРОДА-ПОЧВА-РАСТЕНИЕ» НА ЛУГОВО-ОАЗИСНЫХ ПОЧВАХ ЗАПАДНОЙ ФЕРГАНЫ. Universum: химия и биология, (9-1 (99)), 45-50.
55. Кушназарова, Ш. К., Азимов, Н. Ш., Валиев, Н. В. Ў., & Очилов, Г. М. (2022). РЕЗУЛЬТАТЫ ОПРЕДЕЛЕНИЯ ТЯЖЕЛЫХ МЕТАЛЛОВ В НЕКОТОРЫХ ВИДАХ СЫРОГО МЯСА. Universum: химия и биология, (11-1 (101)), 53-57.
56. Хамзахўжаев, А. А., Валиев, Н. В., & Очилов, Г. М. (2021). МЕЛАМИННИНГ САНОАТДА ҚЎЛЛАНИЛИШИГА ОИД АЙРИМ МАСАЛАЛАР ТЎҒРИСИДА. Журнал естественных наук, 3(5).

57. Akhiyarov, A. A., Lobov, A. N., Ivanov, S. P., Spirikhin, L. V., Gabbasov, T. M., Tsyrlina, E. M., ... & Yunusov, M. S. (2020). Antiarrhythmic agents based on diterpenoid alkaloid lappaconitine. Protonation of N-deacetylappaconitine in methanol solutions. *Russian Chemical Bulletin*, 69(3), 567-571.
58. Ботиров, Р. А., Валиев, Н. В. Ў., Жураев, О. Т., Садиков, А. З., Сагдуллаев, Ш. Ш., & Турсунова, Ш. З. (2020). Технология производства алкалоида стахидрина из растения *Capparis spinoza* L. *Universum: технические науки*, (9-2 (78)), 55-59.
59. Omonjonovich, N. B., Kosimovna, K. S., Valijon o'g'li, V. N., & Shukhratovich, A. N. (2022). ON THE MODERN INTERPRETATION OF THE HISTORY OF CHEMISTRY. *Open Access Repository*, 8(12), 655-658.
60. Kosimovna, K. S., Omonjonovich, N. B., Shukhratovich, A. N., & Azamovna, K. M. (2022). CLASSIFICATION OF HEAVY METALS IN MEAT AND DAIRY PRODUCTS BASED ON THE DEFINITION. *Open Access Repository*, 8(11), 260-265.
61. Кушназарова, К. Ш. (2022). Совершенствование системы классификации мясомолочной продукции на основе товарной номенклатуры (Doctoral dissertation, Автореферат диссертации на соискание ученой степени доктора философии по техническим наукам (PhD). Ташкент).
62. Кушназарова, Ш. К., Азимов, Н. Ш., Валиев, Н. В. Ў., & Очиллов, Г. М. (2022). РЕЗУЛЬТАТЫ ОПРЕДЕЛЕНИЯ ТЯЖЕЛЫХ МЕТАЛЛОВ В НЕКОТОРЫХ ВИДАХ СЫРОГО МЯСА. *Universum: химия и биология*, (11-1 (101)), 53-57.
63. КАРИМОВА, Д. Б., КАЗИМОВА, Н. М., АСЛАНОВА, Ф. И., МЕЛИБОЕВА, Г. С., & МАХМУДОВ, И. Т. (2015). ОПРЕДЕЛЕНИЕ УСЛОВИЙ СИНТЕЗА ГЕКСААЛЮМИНАТА ЛАНТАНА МАГНИЯ. In *Поколение будущего: Взгляд молодых ученых-2015* (pp. 25-26).
64. КАРИМОВА, Д. Б., КАЗИМОВА, Н. М., МАХМУДОВА, С. А., ДЕХҚОНОВА, К. Д., & МАХМУДОВ, И. Т. (2015). ДИСЛОКАЦИОННЫЕ ДЕФЕКТЫ В МОНОКРИСТАЛЛАХ ГЕКСААЛЮМИНАТА ЛАНТАНА МАГНИЯ. In *Молодежь и XXI век-2015* (pp. 15-18).
65. Муминова, Р. Н., & Казимова, Н. М. (2015). Проблема очистки сточных вод в Узбекистане. *Молодой ученый*, (22), 47-48.
66. ХАЛИМОВА, М. Р., ТАШПУЛАТОВА, Д. С., & КАЗИМОВА, Н. М. (2015). АНТРОПОГЕННОЕ ВОЗДЕЙСТВИЕ НА ЧИСЛЕННОСТЬ РАСТИТЕЛЬНОГО МИРА. In *Молодежь и XXI век-2015* (pp. 363-365).
67. НОМОЗОВ, Ш. Ю. О., КАЗИМОВА, Н. М., & МАХМУДОВ, И. Т. (2014). ОСОБЕННОСТИ ПОЛУЧЕНИЯ БИТУМА ИЗ ГОССИПОЛОВОЙ СМОЛЫ. In *Будущее науки-2014* (pp. 105-107).

68. Туляганов, Т. С., Козимова, Н. М., & Султанов, С. А. (2008). Новые алкалоиды *Peganum Harmala* {Peganaceae. Растительные ресурсы, 44(1), 82-86.
69. Tulyaganov, T. S., Kozimova, N. M., & Allaberdiev, F. K. (2006). Alkaloids from plants of the genus *Nitraria*. Chemistry of natural compounds, 42(2), 198-200.
70. кизи Мукимджонова, У. В., Исаков, М. Ю., & Худжаева, Н. Т. (2022). VIGNA SINENSIS, PHASELOUS AYREUS, ARACHNIS HYPOGAEA O'SIMLIKLAR DONLARI VA POYALARINING ORGANIK TARKIBI. Журнал химии товаров и народной медицины, 1(2), 185-202.
71. Azimova, N. R., Hojaev, V. U., Hojayeva, N. T., & Oxunov, I. I. (2020). NICOTINE-CONTAINING PLANTS. Life Sciences and Agriculture, 2(2), 37-41.
72. Ravshanovna, A. N., Umarovich, X. J. V., Toshtemirovna, X. J. N., & Islomovich, O. I. (2020). Tarkibida nikotin saqlovchi o'simliklar. Life Sciences and Agriculture, (2-2), 37-41.
73. Рахимова, Г. С., Мирзахамдамова, Д. З., & Расулов, М. А. (2016). Экологические проблемы в области Фергане: исторический аспект. Высшая школа, (21-2), 73-75.
74. Рахимова, Г. (2020). ОЛМАЛИҚ ШАҲРИДА ЭКОЛОГИК ҲОЛАТНИНГ ЎЗГАРИШ САБАБЛАРИ. ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ, (SI-3).
75. Рахимова, Г. С. (2020). 1950-80 ЙИЛЛАРДА НАВОИЙ ВИЛОЯТИДА ЭКОЛОГИК ҲОЛАТЛАР. In ИННОВАЦИОННЫЕ ПОДХОДЫ В СОВРЕМЕННОЙ НАУКЕ (pp. 135-138).
76. Рахимова, Г. С. (2020). БУХОРО ВИЛОЯТИДАГИ САНОАТ КОРХОНАЛАРДАГИ ИҚТИСОДИЙ МУАММОЛАРНИНГ ОҚИБАТЛАРИ. ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ, 3(11).
77. Rakhimova, G. S. (2022). KARAKALPAKISTAN, ENVIROMENTAL SITUATION. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(5-2), 176-181.
78. Sobirjonovna, R. G. (2021). IMPACT OF PROBLEMS IN THE INDUSTRY OF KARAKALPAKISTAN ON THE ENVIROMENTAL SITUATION.
79. Рахимова, Г. (2020). ЎЗБЕКИСТОНДА 1940-1980 ЙИЛЛАРДА САНОАТЛАШТИРИШ СИЁСАТИНИНГ ОҚИБАТЛАРИ. ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ, 3(8).
80. Rahimova, M. O., & Muhammadqodirova, F. O. (2022). THE HISTORY OF THE DEVELOPMENT OF THE UZBEK NATIONAL LANGUAGE IN THE 20TH CENTURY. European Journal of Interdisciplinary Research and Development, 10, 132-135.
81. Rakhimova, M. O. (2022). About antonymy. Eurasian Research Bulletin, 14, 309-311.
82. Odilovna, R. M., & Otabekna, M. F. (2022). Presupposition of Adjectives. Eurasian Scientific Herald, 14, 17-19.

83. Rahimova, M. (2022). SEMIOTIC ISSUES OF WORD NOMEMA. INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429, 11(09), 333-336.
84. ODILOVNA, R. M. (2022). THE SOUND SIDE OF THE WORD AND ITS SIGNIFICANCE. International Journal of Philosophical Studies and Social Sciences, 2(1), 61-64.
85. Odilovna, R. M. (2021). Meaning and its Place in the Symbolic Status of the Word. European Journal of Life Safety and Stability (2660-9630), 12, 96-98.
86. Раҳимова, М. (2021). НОМЕМА ВА СЕМЕМАНИНГ ЎЗАРО МУНОСАБАТИ: DOI: 10.53885/edinres. 2021.23. 79.047 М. Раҳимова, Қўқон ДПИ, филология фанлари бўйича фалсафа доктори. In Научно-практическая конференция.
87. Rakhimova, M., & Muhammadkadirova, F. (2021). CORRELATIVE WORDS. In International journal of conference series on education and social sciences (Online) (Vol. 1, No. 2).
88. Odilovna, R. M. (2018). The Role and Status of Linguistic Markers in the System of Symbols. ANGLISTICUM. Journal of the Association-Institute for English Language and American Studies, 7(7), 29-34.
89. Раҳимова, М. О. (2017). ПРИОБРЕТЕНИЕ ЗНАКОВОСТИ СЛОВА В ВИРТУАЛЬНЫХ И АКТУАЛЬНЫХ СИТУАЦИЯХ. Ученый XXI века, (1-2).